

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINI TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

*Nabijonova Feruza Valijon qizi,
Farg`ona davlat universiteti, o`qituvchi.
Usmonova Odinaxon Sobirovna,
Farg`ona davlat universiteti, o`qituvchi.*

Annotatsiya: Hozirgi kunda yosh avlodning ma'naviy salohiyatini, dunyoqarashini yuksaltirish eng muhim masalalardan biridir. Shuningdek, ularning nutqlarini shakllantirish, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda yetuk notiq qilib tarbiyalash va yozuv malakalarini rivojlantirish ona tili fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada o`quvchilarning yozma nutqida uchraydigan kamchiliklar va uni bartaraf etish usullari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: yozma nutq, mashqlar, diktant, bayon, punktuatsiya, imlo qoidalari, gap, matn.

Аннотация: В наше время повышение духовного потенциала и мировоззрения молодого поколения является одним из важнейших вопросов. Также формирование их речи, воспитание их зрелых ораторов и развитие навыков письма в соответствии с нормами литературного языка является одной из важнейших задач науки о родном языке. В данной статье научно исследуются недостатки, обнаруженные в письменной речи студентов, и методы их устранения.

Ключевые слова: письменная речь, упражнения, диктант, изложение, пунктуация, правила орфографии, предложение, текст.

Ma'lumki, imlo bu ona tili fanining asosiy masalalaridan biridir. Hozirgi kunda imlo qoidalariga asoslanib yozish birozgina oqsaganga guvoh bo`lmoqdamiz. Bu o'rinda ijtimoiy tarmoq vositalarining salbiy oqibatlari talaygina. Chunki aksariyat yoshlar internet tarmoqlarida xabarlashish so`zlarini imloviy jihatdan xato va qisqartishlarni qo'llagan holda yozmoqdalar. Bu esa vizual xotiraga ta'sir etib, miyaga yozma shakllar to`g'risida noto`g'ri ma'lumotlarni kirishiga sabab bo`lmoqda. Bu salbiy o`qibatlarni bartaraf qilishda, albatta pedagog shaxslarni o`rni beqiyos.

Bilamizki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli, undalmali gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam

bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatalishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi. 1-sinf o'quvchilarini savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq va undov belgilari bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar „Alifbe“ o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar.

O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3—5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o'qishga oldindan tayyorlash uchun chizmadan foydalananiladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so'zlarni sanaydilar va o'qituvchi rahbarligida chiziqlar bilan belgilaydilar.

O'qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi:

Og'zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza (to'xtam) bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko'rsatadi). Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko'rsatish uchun alohida belgi — nuqta ishlataladi. Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalananiladi. O'quvchilar gapni yozganda o'qituvchi nuqta qo'yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo'yish lozimligini tushuntiradilar. Shunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakllantiriladi. So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini

bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni ko'tarish bilan o'qishga o'rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so'roq belgisini qo'yishni talab etadi. Undov belgisini qo'yishni o'quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o'qilishi bilan bog'laydilar. O'quvchilar 2-sinfda „Gap" bo'limi mavzularini o'rganish jarayonida nuqta, so'roq va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. Shu vaqtadan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilarisintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. „Darak gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, „So'roq gap" mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va „Undov gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi.

4-sinfda o'quvchilar „Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, Biz ona tilimizni sevib o'rganamiz (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). Men, Ra'no, Alisher boshqa tillarni ham sevib o'rganyapmiz (Men, Ra'no, Alisher so'zlaridan so'ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi). O'quvchilar uyushiq bo'lakli gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarning ammo, lekin, biroq so'zları bilan bog'langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishslash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishi o'rgatadi. Masalan, Olma, olcha, nok - meva. Kitob — bilim bulog'i. Ona tili darslarida so'zlarni guruhash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi I sind o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o'stirib boradi. O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rniда ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va

puntuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatalish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'r ganadilar. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ona tili va o`qish savodxonligi” 1-qism: 1-sinf uchun darslik/ I.Asimova va boshqalar.-Toshkent Respubлиka ta'lim markazi, 2021.
2. Lutfullayeva D.E. “Assotsativ tilshunoslik nazariyasi”/Monografiya/- T:MERIYUS,2017. 23-bet
3. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. T:O`qituvchi, 2012 y.
4. Qosimova K. va boshqalar. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi fani dasturi. Toshkent, 1996.
5. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(19), 366-372.
6. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
7. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.
8. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (10), 90-92.
9. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
10. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 32-36.
11. Feruza, N. (2023). DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *IQRO JURNALI*, 2(2), 542-552.
12. Nabijonova, F. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA GEOMETRIK ELEMENTLARNI O 'RGATISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 402-408.
13. Rasulova, F., & Nabijonova, F. (2023). EQUATION AND METHODOLOGY OF ITS TEACHING. *Modern Science and Research*, 2(5), 1311-1314.
14. Feruza, N. (2023). OZGA GAPLAR VA ULARNING TURLARI. *IQRO JURNALI*, 3(1), 323-327.

15. Aydarova U.B O'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment”, 2023 – 80 b.
16. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 11-16.
17. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 446-450.
18. Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami, 1(06), 46-49.
19. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemo Technique in the Textbook of Primary School Native Language and Reading Literacy. International Journal of Culture and Modernity, 17, 421-426.
20. Usmanova, O. S. (2022). A TEXTBOOK ON NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY, CREATED ON THE BASIS OF THE NATIONAL CURRICULUM. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 48
21. Usmanova Odinakhon Sobirovna. (2022). NATIONAL CURRICULUM AND NEW GENERATION MOTHER TONGUE AND READING TEXTBOOK. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 176–183. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NMBXR>
22. Усмонова, О. (2022). РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 148-158.
23. Sobirovna, U. O. 1-sinf o'qish kitobidagi she'rlarni o'quvchilarga o'rgatish uslbiyoti. Washington. Innovtion in the modern education system, 1, 206-209.
24. Usmanova Odinakhon Sobirovna. (2023). THE USE OF MNEMONICS IN TEACHING PRIMARY SCHOOL CHILDREN THEIR NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY. Academia Science Repository, 4(05), 35–45.
25. Usmonova, O. (2023). 1-SINFLARDA ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGATISH VA TA'LIM TIZIMDA SAMARADORLIKKA ERISHISH. Академические исследования в современной науке, 2(11), 10-12.